

# CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*2022- yil yanvar-may oylari holatiga ko‘ra*
*dastlabki ma’lumot*

Toshket shahri bo‘yicha 2022- yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **27 683,7** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **108,0** % ga oshdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **10 509,1** mlrd. so‘mni (o‘sish sur’ati **111,9** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **16 597,3** mlrd. so‘mni (o‘sish sur’ati **105,9 %)**, shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **577,4** mlrd. so‘m (o‘sish sur’ati **102,3 %** )ni tashkil etdi.

**Chakana savdo aylanmasi tarkibi,** foizda




**Uyushmagan savdo,** mlrd. so‘m




## O‘sish sur’atlari, foizda



# HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so‘m

## ENG YUQORI ULUSH

Shahar chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Yunusobod tumani **15,6 %** ulush bilan **4 332,3** mlrd. so‘mni tashkil etdi.

**Yunusobod**
**3 325,2**

**Chilonzor** 3 749,6

**Uchtepa** 2 783,4

**Shayxontohur** 2 475,6

**Yakkasaroy** 2 471,2

**Sirg’ali** 2 382,5

**Mirobod** 2 076,4

**Yashnobod** 1 905,3

**Olmazor** 1 809,3

**Bektemir** 1 798,4

**M.Ulug`bek** 1 627,8

## ENG QUYI ULUSH

Toshkent shahri chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Yangihayot tumani **1,0 %** ulush bilan **271,9** mlrd. so‘mni tashkil etdi.

**Yangihayot**
**271,9**



## UMUMIY MA’LUMOT

2022-yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **27 683,7** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan **108,0** % ni tashkil etdi.

# CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI

| | Jami, mlrd. so‘m | 2021-yil-ning mos davriga nisbatan, foizda | Yirik korxona-lar, mlrd. so‘m | 2021-yil-ning mos davriga nisbatan, foizda | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so‘m | 2021-yil-ning mos davriga nisbatan, foizda |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Toshkent sh** | **27 683,7** | **108,0** | **8 165,6** | **111,9** | **16 597,3** | **105,9** |
| | | | | | | |
| Uchtepa | 2 783,4 | 107,8 | 354,2 | 185,4 | 2 372,7 | 101,5 |
| Bektemir | 1 798,4 | 114,9 | 176,1 | 189,0 | 1 537,9 | 113,7 |
| Yunusobod | 4 332,3 | 113,3 | 1 361,7 | 103,7 | 2 901,0 | 145,8 |
| M.Ulug`bek | 1 627,8 | 109,6 | 525,3 | 191,4 | 1 042,6 | 93,8 |
| Mirobod | 2 076,4 | 112,0 | 1 125,9 | 112,8 | 918,0 | 96,5 |
| Shayhontohur | 2 475,6 | 102,0 | 1 229,5 | 178,3 | 1 199,7 | 72,8 |
| Olmazor | 1 809,3 | 110,3 | 907,8 | 145,3 | 877,2 | 86,9 |
| Sirg`ali | 2 382,5 | 107,8 | 1 076,9 | 89,2 | 1 280,0 | 135,1 |
| Yakkasaroy | 2 471,2 | 102,2 | 925,1 | 90,5 | 1 503,4 | 113,6 |
| Yashnobod | 1 905,3 | 106,7 | 803,3 | 140,5 | 1 025,9 | 92,7 |
| Yangihayot | 271,9 | 131,9 | 8,1 | 61 802,9 | 258,9 | 130,5 |
| Chilonzor | 3 749,6 | 103,2 | 2 015,2 | 107,0 | 1 679,9 | 98,8 |

2021-yilning mos davriga nisbatan chakana savdo aylanmasi o‘sishining yuqori ko‘rsatkichlari Yangihayot (**131,9** %), Bektemir (**114,9** %) va Yunusobod (**113,3 %**) tumanlarida qayd etildi.

## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

**Yirik korxonalar ,** foizda

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2021-yilning mos davriga nisbatan **111,9 %** ga o‘sdi va **10 509,1** mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bu esa, umumiy savdo hajmining **38,0 %** ulushiga to‘g‘ri keldi.






**Eng yuqori ulushga ega hududlar**

19,2 — Chilonzor 2 015,2
Tovar aylanmasi hajmi, mlrd.so‘m

13,0 — Yunusobod 1 361,7
Tovar aylanmasi hajmi, mlrd.so‘m

11,7 — Shayxontohur 1 229,5
Tovar aylanmasi hajmi, mlrd.so‘m




**Eng yuqori ulushga ega hududlar,** foizda

# CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko‘ra, **16 597,3** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan **105,9** % ga oshdi. Shahar miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **59,9** % ni tashkil etdi.

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari, foizda**




**Tovar aylanmasi hajmi, mlrd.so‘m**

Yunusobod 2 901,0

17,5 %

Uchtepa 2 372,7

14,7 %

Chilonzor 1 679,9

10,1 %

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi yuqori ulushga ega hududlar, foizda**



*17,5*

*14,7*

*10,1*



## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, foizda

Tahliliy natijalarga ko‘ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo‘yicha Uchtepa (**82,8 %**), Bektemir (**81,0 %**), Yunusobod (**58,4** %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi **40,1** % ni tashkil etib, eng katta ulush Yangihayot (**64,0** %), Chilonzor (**56,8 %)**, Mirobod (**55,4** %) tumanlarida kuzatildi.



# AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI

2022-yilning yanvar-may oylari holatiga ko‘ra o‘rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **9 642,2** ming so‘mni (2021-yilning mos davriga nisbatan **101,8** % ga oshdi) tashkil etdi.

Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Bektemir (**34 921,1** ming so‘m), Yakkasaroy (**19 880,6** ming so‘m) va Sirg’ali (**16 196,5** ming so‘m) tumanlarii hissasiga to‘g‘ri keldi.

| | Hajm, ming so‘m | 2021-yil-ning mos davriga nisbatan, foizda |
|---|---|---|
| **Toshkent sh** | **9 642,2** | **101,8** |
| | | |
| Uchtepa | 9 708,2 | 105,0 |
| Bektemir | 34 921,1 | 70,5 |
| Yunusobod | 12 037,6 | 111,1 |
| M.Ulug`bek | 5 175,9 | 99,6 |
| Mirobod | 14 192,8 | 109,6 |
| Shayhontohur | 6 967,5 | 100,2 |
| Olmazor | 4 680,1 | 107,9 |
| Sirg`ali | 16 196,5 | 78,0 |
| Yakkasaroy | 19 880,6 | 100,3 |
| Yashnobod | 6 816,9 | 99,3 |
| Yangihayot | 1 787,5 | 117,5 |
| Chilonzor | 14 027,8 | 101,0 |

**Eng yuqori hajm,** ming so‘m

**Bektemir – 34 921,1**

**Yakkasaroy – 19 880,6**

**Sirg’ali– 16 196,5**

**Eng quyi hajm,** ming so‘m

**M.Ulug`bek – 5 175,9**

**Olmazor – 4 680,1**

**Yangihayot – 1 787,5**



# UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Toshkent shahri bo‘yicha 2022-yilning yanvar-may oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **472,3** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan **101,5** % ga ko‘paydi. Shu jumladan, 1-bozor va 1-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma’lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo‘jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **151,5** mlrd. so‘mni (o‘zgarish sur’ati **101,5** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **10,3** mlrd. so‘mni (o‘zgarish sur’ati **121,3** %) tashkil etdi.

## Tovar aylanmasi ulushi va hajmi

| | |
|---|---|
| Uyushmagan savdo | **577,4 mlrd. so‘m, 100 %** |
| Dehqon bozorlari | **521,3 mlrd. so‘m, 90,3 %** |
| Chorva bozorlari | **56,1 mlrd. so‘m, 9,7 %** |

### Uyushmagan savdo tovar aylanmasi, foizda

**Dehqon bozorlari**




**Chorva bozorlari**




### Uyushmagan savdo tovar aylanmasida ulushi katta hududlar, foizda



# UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO AYLANMASI HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI

2022-yilning yanvar-may oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo‘jaligida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi, dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **151,5** mlrd. so‘mni, chorva (parranda) bozorlarida **10,3** mlrd. so‘mni tashkil etdi.

** Xo‘jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo‘shmagan holatda*

** Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo‘jaligida o‘z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari*

| | Jami, mlrd. so‘m | 2021-yil-ning mos davriga nisbatan, foizda | Dehqon bozorlari, mlrd. so‘m | 2021-yil-ning mos davriga nisbatan, foizda | Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so‘m | 2021-yil-ning mos davriga nisbatan, foizda |
|---|---|---|---|---|---|---|
| Toshkent shahri | **577,4** | **102,3** | **521,3** | **113,8** | **56,1** | **522,6** |
| Uchtepa | 56,4 | 84,0 | 20,6 | 190,4 | | |
| Bektemir | 84,5 | 89,4 | 70,8 | 67,2 | 56,08 | 52,9 |
| Yunusobod | 69,6 | 258,0 | 97,2 | 111,4 | | |
| Mirzo Ulug’bek | 59,9 | 129,2 | 77,9 | 193,1 | | |
| Mirobod | 32,5 | 101,8 | 4,9 | 267,6 | | |
| Shayxontohur | 46,3 | 93,1 | 55,5 | 183 | | |
| Olmazor | 24,3 | 64,7 | 18,8 | 344,4 | 0,02 | 4,3 |
| Sirg’ali | 25,6 | 239,3 | 13,5 | 342,8 | | |
| Yakkasaroy | 42,6 | 100,2 | 16,1 | 242,8 | | |
| Yashnobod | 76,1 | 129,4 | 39,0 | 83,5 | | |
| Yangihayot | 4,9 | 68,6 | 1,4 | 233,7 | | |
| Chilonzor | 54,6 | 60,0 | 14,9 | 49,3 | | |

# UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI

2022-yilning yanvar-may oylarida Toshkent shahrining barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **577,4** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (**56,1** mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.



# UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd. so‘m

2022-yilning yanvar-may oylarida Toshkent shahrining barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **56,1** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **3,0** mlrd. So‘mni, qo‘y va echkilar **2,2** mlrd. so‘mni, otlar **0,4** mlrd. so‘mni, parrandalar 0,**02** mlrd. so‘mni tashkil etdi.



# UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI

2022- yilning yanvar-may oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **6,9 %** ni tashkil etib, **1 887,7** mlrd. so‘mga yetdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan **133,3 %** ga oshdi. Bunda jami savdo aylanmasining **61,5 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

| | Jami, mlrd. so‘m | 2021-yil-ning mos davriga nisbatan, foizda | Yirik korxonalar, mlrd. so‘m | 2021-yil-ning mos davriga nisbatan, foizda | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so‘m | 2021-yil-ning mos davriga nisbatan, foizda |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Toshkent shahri** | **1 887,7** | **133,3** | **656,6** | **184,5** | **1159,5** | **116,5** |
| **Uchtepa** | 66,2 | 113,0 | 0,9 | 28,8 | 59,4 | 118,6 |
| **Bektemir** | 46,8 | 148,0 | 19,0 | 186,1 | 14,0 | 154,9 |
| **Yunusobod** | 256,6 | 122,9 | 65,0 | 181,0 | 180,8 | 110,9 |
| **Mirzo Ulug’bek** | 170,7 | 119,3 | 7,3 | 233,8 | 153,1 | 117,1 |
| **Mirobod** | 172,0 | 125,2 | 25,7 | 124,0 | 143,7 | 125,6 |
| **Shayxontohur** | 489,9 | 159,3 | 364,5 | 180,8 | 121,7 | 118,6 |
| **Olmazor** | 80,9 | 88,9 | 7,4 | 0,0 | 68,9 | 80,1 |
| **Sirg’ali** | 106,6 | 170,9 | 68,5 | 220,7 | 35,9 | 127,8 |
| **Yakkasaroy** | 149,4 | 119,4 | 18,8 | 179,9 | 125,1 | 114,0 |
| **Yashnobod** | 191,3 | 183,7 | 68,2 | 331,5 | 114,8 | 148,9 |
| **Yangihayot** | 14,3 | 127,4 | 0,3 | 0,0 | 13,3 | 125,6 |
| **Chilonzor** | 143,2 | 105,4 | 11,1 | 58,5 | 128,7 | 113,0 |

# ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Toshkent shahar bo‘yicha 2022-yilning yanvar-may oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **42 755,4** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan **123,2** % ga o‘sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarning savdo tovar aylanmasi **15 186,0** mlrd. so‘mni (**131,9** % ga ko‘paydi) tashkil etdi.

## Savdo aylanmasi hajmi va ulushi




## Ulgurji savdo tovar aylanmasi, foizda




## Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da






# ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR’ATLARI

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o‘sish sur’atlariga ega yirik korxonalar Yakkasaroy (**240,0** %), Sirg’ali (**192,0** %) va Shayxontohur (**185,4** %) tumanlarida kuzatildi.

| | Jami, mlrd. so‘m | 2021-yilning mos davriga nisbatan, foizda | Yirik korxona-lar, mlrd. so‘m | 2021-yilning mos davriga nisbatan, foizda | Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so‘m | 2021-yil-ning mos davriga nisbatan, foizda |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **Toshkent shahri** | **42 755,4** | **123,2** | **15 186,0** | **131,9** | **27 569,3** | **118,9** |
| **Uchtepa** | 2 385,6 | 111,9 | 184,6 | 71,3 | 2 200,9 | 117,5 |
| **Bektemir** | 788,0 | 125,9 | 20,0 | 60,9 | 767,9 | 129,5 |
| **Yunusobod** | 4 026,7 | 133,3 | 1 430,5 | 133,2 | 2 596,2 | 133,4 |
| **Mirzo Ulug’bek** | 3 636,6 | 108,9 | 564,3 | 75,4 | 3 072,3 | 118,5 |
| **Mirobod** | 4 234,5 | 107,7 | 1 000,3 | 94,2 | 3 234,2 | 112,7 |
| **Shayxontohur** | 2 579,9 | 127,8 | 554,7 | 185,4 | 2 025,2 | 117,7 |
| **Olmazor** | 6 655,3 | 139,8 | 3 397,1 | 172,3 | 3 258,2 | 116,8 |
| **Sirg’ali** | 2 859,9 | 136,7 | 696,8 | 192,0 | 2 163,2 | 125,0 |
| **Yakkasaroy** | 5 147,6 | 150,8 | 2 251,9 | 240,0 | 2 895,7 | 117,0 |
| **Yashnobod** | 5 020,4 | 110,5 | 2 755,9 | 107,8 | 2 264,6 | 114,0 |
| **Yangihayot** | 506,9 | 127,8 | 44,4 | 137,9 | 462,6 | 126,9 |
| **Chilonzor** | 4 913,9 | 111,1 | 2 285,5 | 104,9 | 2 628,4 | 117,2 |

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo’limi**
**Tel.:71-203-88-20**